

MAVZU: FALSAFA FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA JAMIYATDAGI ROLI.

Reja:

1. Falsafa tushunchasining kelib chiqishi.
2. Dunyoqarash tushunchasi, uning tuzilishi va tarixiy shakllari.
3. Falsafaning jamiyatdagi roli.
4. Falsafiy dunyoqarashning tamoyillari va funksiyalari.
5. Sharq va G'arb falsafasining vujudga kelishi, rivojlanish tarixi

Tayanch so'z va iboralar: *milliy va umuminsoniy qadriyat, falsafa, donolik, falsafiy ta'limotlar, dunyoqarash, dunyoqarash funksiyasi, falsafiy dunyoqarash vazifalari, nazariya, bilish, bilim, Qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va madaniyati, ilk madaniy yodgorliklar, vedalar, daosizm ta'limoti, konfutsiylik, «Avesto», zardushtiylik diniy-falsafiy ta'limoti, o'rta asr islom falsafasi, so'fizm falsafasi, Milet falsafiy maktabi, olamning asosi, substansiya, eleat falsafiy maktabi, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlar, ob'ektiv va sub'ektiv omillar, appologetika, patristika, sxolastika, nominalizm, realizm, ekzistensial falsafa, neopozitivizm, strukturalizm, germeneytika, ssientizm va antissientizm.*

Falsafa tushunchasining kelib chiqishi. Falsafa insoniyat tarixidagi eng qadimgi ilmlaridan biridir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash, inson tabiatiga hos demak fan ham uning o'ziga kabi qadimiydir. Har qanday noma'lum so'z mazmunini uning etimologiyasidan, ya'ni u qachon, qanday va nima uchun yuzaga kelganini aniqlashdan boshlash o'rinli bo'ladi. «Falsafa» tushunchasi yunoncha phileo – sevaman va sophia – donolik so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, mazkur atamaning dastlabki ma'nosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin. Falsafa so'zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan avlodga o'tuvchi bilim bilan inson o'z aqliga tayanib, mushohada yuritish va tanqidiy fikrlash yo'li orqali olishi mumkin bo'lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan.

Falsafaning mohiyati - bu “olam-odam” tizimidagi umumiy muammolar ustida fikr-mulohaza yuritishdan iboratdir. Qadimgi dunyoda fanlarning barchasi, ular qanday ilm bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar filosofiya deb atalgan. Dastlabki falsafiy ta'limotlar Qadimgi Hindiston, Xitoy, Eron va Turon, Misrda paydo bo'lib, qadimgi Gresiya – Yunonistonda o'zining mumtoz shakliga erishgan. Falsafa ijtimoiy, tabiiy fanlar kabi mustaqil fan sifatida o'z ob'ekt va predmetiga ega. Falsafaning predmetini «olam-odam» tizimi tashkil etadi.

Nisbatan qarama-qarshi “ob'ekt va sub'ekt” tushunchalarida ifodalangan olam va inson dunyosi ayni vaqtda o'zaro uzviy aloqadagi dunyolar hamdir. Umuman, falsafa fani predmetining tarkibiga moddiy olam va uning mavjudligiga xos qonuniyatlar kirmaydi, balki, uning insonga aloqador bo'lgan eng umumiy jihatlarigina kiradi, xolos. Moddiy olam to'g'risidagi qarash, g'oya va nazariyalar aniq fanlar tomonidan o'rganiladi. Inson tomonidan haqiqat, go'zallik, yaxshilik, adolat nuqtai-nazari orqali yaratilgan olamning universal suvrati falsafiy dunyoqarashni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Falsafiy bilimlarning mazmun va mohiyati hodisalarning eng muhim sabablarini bilish, ulardan to'g'ri xulosa chiqarib, kundalik amaliy faoliyatni sog'lom fikr asosida yuritishga qaratilgan bo'ladi. Kundalik bilimlarda, “donolik” deb nom olgan bebaho fazilat takomillashib boraveradi. Tabiatga oid sohalarda biz ba'zi kishilarni “o'z fanini yaxshi biladigan mutaxassis” deymiz, lekin “dono odam” demaymiz. Falsafiy fikrlash qobiliyati mutaxassis faylasuf bo'lmagan kishilarga ham xos. Falsafa sohasida faoliyat yurituvchi ba'zi kishilar hayotga nisbatan shu qadar yuksaklikka ko'tariladilarki, ularning darajasi “donolik” tushunchasiga muvofiq keladi.

“Donolik” – hayotiy tajribaga tayanadigan teran aql-idrokni, haqiqat va yaxshilik birligini, oliy haqiqatni, sevgi va rostgo'ylik mushtarakligini, aqliy va axloqiy kamolotning oliy darajaga yetgan holatini, qadriyatlarni qadrlash, his-tuyg'ularning hayotga singib ketishini, har qanday narsaga va hodisaga mehr bilan qarash, har qanday masalaga, tashvishli murakkab holatlarda ham aql ko'zi bilan qarash demakdir

Bu falsafaning predmeti va uning o'zgaruvchan xarakteri bilan bog'liq. Chunki, olam va odam, ularning ibtido va intihosi, hayoti va o'zaro munosabatlari, inson tafakkuri, tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari umumbashariy fan sifatida falsafaning azaliy bahs mavzulari va asosiy

muammolaridir. Shuningdek, muayyan davrda tugʻilib, hal etiladigan oʻtkinchi muammolar abadiyatga dahldor boʻlmasa-da, oʻz davri talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqani uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoqarash tushunchasi, uning tuzilishi va tarixiy shakllari. Dunyoda hayot, oʻlim, tugʻilish, oxirat toʻgʻrisida oʻylab, mulohaza yuritib koʻrmaydigan birorta ham inson boʻlmasa kerak. Falsafa, biz yashab turgan hayot maʼnosini tushunishga yordam beradi hamda oʻz ruhimizni bardam-baquvvat tutib, uni mustahkamlashga koʻmaklashadi. Isoniyat yaratilgandan boshlab insonning ancha rivojlangan dunyoqarashi shakllangani haqida va umuman toʻplangan bilimlar, amaliy koʻnikmalar, vujudga kelgan qadriyatlar, oʻzi va oʻzini qurshagan dunyo haqidagi tasavvurlar majmui sifatidagi odamlar dunyoqarashi toʻgʻrisida ishonch bilan soʻz yuritish mumkin.

Dunyoqarash deb – insonning oʻzini qurshagan borliqqa va oʻz-oʻziga nisbatan yondashuvlar tizimi, shuningdek uning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, eʼtiqodlari,, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va moʻljallaridir.

Dunyoqarashga subʼektning yoshi, jismoniy va ruhiy holati, feʼl-atvori xususiyatlari, odatlari va eʼtiqodlari, shuningdek milliy madaniyat tipi, etnos xususiyatlari va ijtimoiy-madaniy omillar oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Dunyo haqidagi tasavvurda obʼektiv va subʼektiv tomonlarni ajratish ham oʻrinli boʻladi.

Dunyoqarashning tuzilishi - *dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat.*

Dunyoni sezish– bu oʻzini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etishdir. Bunda tuygʻular, kayfiyat dunyoni goʻyoki ranglarga boʻyaydi, uning obrazini subʼektiv, sof individual sezgilar orqali aks ettiradi. Masalan, bemor odamga haddan tashqari yorugʻ boʻlib tuyulishi mumkin boʻlgan nur, sogʻlom odam uchun normal boʻladi; daltonik ranglar gammasini, koʻrish qobiliyati normal boʻlgan odamga qaraganda butunlay boshqacha idrok etadi. Bundan dunyoni sezishning har xil, xususan optimistik, pessimistik, fojeaviy tiplari kelib chiqadi.

Dunyoni idrok etish – bu atrof borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilishdir. Dunyoni idrok etish toʻgʻri yoki notoʻgʻri boʻlishi, yaʼni borliqqa mos kelmasligi mumkin. Bu holda borliq notoʻgʻri tasavvur qilinadi yoki illyuziyalar, suv parilari, alvastilar, kentavrlar haqidagi tasavvurlarga oʻxshash fantaziyalar paydo boʻladi.

Dunyoni tushunish – insonning va uni qurshagan dunyoning mohiyatini aniqlash, shuningdek tabiatda yuz beruvchi voqea va jarayonlarning oʻzaro aloqalarini tushunishga qaratilgan aqliy-bilish faoliyatidir.

Dunyoni sezish va qisman (elementar shakllarda) dunyoni idrok etish nafaqat insonga, balki hayvonlarga ham xos boʻlsa, dunyoni tushunish esa faqat odamlarga xos xususiyatdir.

Dunyoqarashning quydagicha hususiyatlarni oʻz ichiga oladi: dunyoqarashda bilish,qadriyatlarga munosabatvaxulq-atvorni belgilash funksiyalarimujassamlashadi.

Dunyoqarashning bilish funksiyasi insonda qiziqish uygʻotuvchi barcha savollarni, shuningdek muayyan yoʻl bilan topuvchi javoblarni oʻz ichiga oladi. Bilish odamlar dunyoqarashini boyitadi va kengaytiradi, u jamiyatning rivojlanishiga qarab yanada teranroq va mazmunan boyroq boʻlib boradi.

Dunyoqarashning qadriyatlarga munosabat funksiyasi – insonning hayotni va oʻzini oliy qadriyat deb hisoblagan holga shakllanadi. Zero, oʻz qadrini bilmagan inson oʻzgalar qadrini bilmaydi va hayotda oʻz oʻrnini topa olmaydi.

Dunyoqarashning xulq atvorni belgilash funksiyasi – insonda oʻz-oʻzini tarbiyalash, maʼnaviy madaniyatini takomillashtirish va faqat oʻzining maʼnaviy dunyosiga munosib muhit tanlash malakalarini shakllantiradi..

Tarixan dunyoqarashning dastlabki shakllari mif va din, falsafa va fan boʻlib, bu hol insoniyat tadrijiy rivojlanishining umumiy mantiqi bilan mushtarakdir. Koʻnikmalar, tajriba va oddiy bilimlar toʻplanishiga qarab, nafaqat ularni avloddan avlodga oʻtkazish muammosi yuzaga kelgan, balki ibtidoiy odamlarning dunyoqarashi ham murakkablashib borgan. Bu dunyoqarash rivojlanishining muayyan bosqichida, toʻplangan bilimlarning «yuqori bosqichiga» yetilgach, boshqa har qanday murakkab tizimda boʻlganidek, dunyoqarashda ham oʻzini oʻzi tashkil etish qonunlari amal qila boshlagan.

Mifologik dunyoqarash. «Mif» tushunchasi yunoncha mythos soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, afsona, rivoyat degan maʼnoni anglatadi. *Mif –turli xalqlarning dunyoning kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning ishlari haqidagi tasavvurini ifodalovchi muayyan tarzda tizimga solingan dunyoqarashdir.*

Mifda bilimlar, diniy e'tiqodlar, ma'naviy madaniyatning turli elementlari, san'at, ijtimoiy hayot kurtaklari birlashgan bo'lib, shu tariqa ibtidoiy odamlar dunyoqarashi muayyan darajada tartibga kelgan, ularning dunyo haqidagi qarashlari esa qisman tizimga solingan. Mazkur tizimga solishning muhim shakllari epos, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar bo'lib, miflar avvalo ular orqali ifodalanadi. Shu tariqa to'plangan bilimlar va tajriba keyingi avlodlarga o'tishi ham ta'minlanadi.

Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu oddiy rivoyat emas, balki og'zaki «muqaddas» matnning arxaik ongdagi voqea-hodisalarga, insonga va u yashayotgan dunyoga ta'sir ko'rsatuvchi muayyan borliq sifatidagi in'ikosidir. Mif, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida, odamlar xulq-atvori va o'zaro munosabatlarini tartibga solish funksiyasini bajargan, chunki unda axloqiy qarashlar, insonning borliqqa estetik munosabati o'z ifodasini topgan. Mifologiyaga shu narsa xoski, unda hamma narsa bir, yaxlit, ajralmasdir; tabiat narsalari va hodisalari inson bilan ayni bir qonunlarga muvofiq yashaydi, inson bilan bir xil sezgilar, istaklar, mayllarga ega bo'ladi.

Mifda ota, oqsoqol hukmi va qaror topgan an'analar muhim rol o'ynaydi. Rivoyat va uning mazmuniga nisbatan bunday munosabat zahirida e'tiqod, borliqni bevosita, emotsional idrok etish yotadi. Mifologik dunyoqarash dunyoni yaxlit tushunish bo'lib, unda shubhaga o'rin yo'qdir. Masalan, Zoroastrizm mifologiyasida dunyo yaxshilik xudosi Axuramazda va yomonlik xudosi Ahrimanning doimiy ziddiyatida rivojlanadi, Maya qabilalari miflarida Ketsalkoatl xudosi dunyoning yaratuvchisi. Vikinglar mifologiyasi dunyoning paydo bo'lishi asosida olov va muzlikning to'qnashishi g'oyasi yotadi. To'qnashuv oqibatida Ivir xudosi paydo bo'lgan, uning sochlaridan o'simlik dunyosi, tomiridagi qondan daryo va dengiz suvlari, qovirg'asidan ayol, mushaklaridan erkak paydo bo'lgan. Vikinglar mifologiyasi ham ko'p xudolilikka asoslangan.

Mifologiya (miflar majmui sifatida) qadimgi odamlar dunyoqarashi bilangina uzviy bog'liq emas. Kundalik ongda yashaydigan din, falsafa, siyosat, san'atda aniq-ravshan yoki pardalangan ko'rinishda mavjud bo'lgan miflar bugungi kunda ham (kim uchundir ko'proq, kim uchundir kamroq darajada) odamlar hayoti va ijodida faol rol o'ynab, har qanday inson dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi jadal sur'atlarda o'sib borayotgan sharoitda mif televidenie, radio, vaqtli matbuot, hozirgi saylov texnologiyalari vositasida ba'zan ijtimoiy ong bilan manipulyatsiya qilish, oldindan belgilangan jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatida qo'llanilmoqda.

Diniy dunyoqarash. Dunyoqarashning tarixan ikkinchi shakli dindir. (Din so'zi arabchadan tarjimada e'tiqod, ishonch, ishonmoq degan ma'nolarni anglatadi.) Mif kabi, din zahirida ham e'tiqod, tuyg'ular va emotsiyalar yotadi. Garchi din kurtaklari «aqli odam» dunyoqarashi shakllanishining dastlabki bosqichlarida, ya'ni taxminan 40-60 ming yil muqaddam paydo bo'lgan bo'lsa-da, umuman olganda u dunyoqarashning mustaqil shakli sifatida keyinroq, jumladan mif ta'sirida insonning mavxum fikrlash qobiliyati sezilarli darajada kuchaygan davrda vujudga kelgan. Diniy dunyoqarash mifologik manzaradan asosan *dunyoni oliy mavjudot, hech kim buzishga qodir bo'lmagan mutlaq hokimiyatga ega, bosh harf bilan yoziladigan Xudo boshqaradi* degan tasavvur bilan farq qiladi. Xudo boqiy va shak-shubhasizdir, u hamma narsani – makon va vaqt, materiya, barcha tirik jonzoatlarni yaratgan. Xudo barcha yaxshi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan va hamma narsaga qodir, U dunyoni yaxshi ishlar uchun yaratgan, biroq U dunyoga erkinlik ham bergan, yaxshilikka har kim zo'rlik ostida emas, balki o'z ixtiyoriga ko'ra kelishiga imkoniyat yaratgan. Ammo erkinlik xatolarga, yomonlikka olib kelishi ham mumkin. Bunda yomonlikning yuz berish ehtimoli erkinlik uchun to'lanadigan haq sifatida qaraladi. Shu sababli Xudo erkinlikka erishish yo'lida yomonlikka ham izn beradi.

Diniy dunyoqarash ilohiy qudratlarga e'tiqod qo'yish bilan bog'liq. Shuning uchun bu dunyoqarash shaklini inson qalbidagi quyidagi holatlar (diniy dunyoqarashning asosiy tamoyillari) belgilaydi:

- emotsional-ruhiy holatlar;
- iymon-e'tiqod;
- iymon-e'tiqodning xatti-harakatlarda ifoda etilishi.

Diniy dunyoqarashni teologiya deb ataladigan falsafiy fan o'rganadi. Teologiya olam va odam munosabati, umrning mazmuni, hayot va o'lim muammosi kabi masalalarni ilohiyot, diniy e'tiqod tushunchalari bilan bog'lab tahlil qilish hamda o'ziga xos mukammal tizimini yaratgan. Bugungi kunda diniy dunyoqarashning bir talay asosiy vazifalari orasida, uning hayot ziddiyatlarini bartaraf qilish bilan bog'liq regulativ faoliyati

nihoyatda muhimdir. Umuman, dinning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati benihoyat ulkan va u tobora ortib bormoqda.

Diniy dunyoqarashda dunyoning maqsad va mazmuni – hammaning hammaga nisbatan umumiy muhabbatiga erishish, biroq bunga yo'l erkinlik hamda yomonlik imkoniyati orqali o'tadi. Xudo muhabbat va yaxshilikka majburlov yo'li bilan erishishni xohlamaydi, U Ilohiy muhabbatni hayotning birdan-bir to'g'ri qonuni sifatida o'zi anglab yetishi uchun dunyoga erkinlik bergan. Dunyo buni anglab yetgunga qadar maqsaddan ko'p sonli chetga chiqishlar yuz berishi mumkin. Inson hayotining mazmuni – Xudoning xohish-irodasini erkin qabul qilish, o'zidagi muhabbat bilan mushtarak bo'lmagan ko'r-ko'rona erkinlikni yengish, erkinlik bilan Xudoning muhabbatini o'zida birlashtirishdan iborat. Diniy dunyoqarash. Dinning asosiy funksiyalari. Dinning psixologik, gnoseologik, ijtimoiy va siyosiy ildizlari. Dinga nisbatan sotsiologik yondashuv. Diniy e'tiqodning tarixiy shakllari (feteshizm, animizm, totemizm, magiya).

Agar mifologiyada an'anaga, rivoyat qiluvchining, ya'ni oqsoqolning obro'siga e'tiqod kuchli bo'lsa, dinda g'ayritabiyy narsalarga e'tiqod birinchi o'rinda turadi, oliy kuchlar nomidan rivoyat qiluvchi ruhoniylar obro'si esa ikkinchi darajali rol o'ynaydi.

Falsafiy dunyoqarash. taxminan 2500 ming yil muqaddam dunyoqarashning uchinchi shakli –falsafa paydo bo'lishi uchun zarur shart-sharoit Yevropa va Osiyoda deyarli bir vaqtda yuzaga keldi. Dunyoqarashning avvalgi shakllari – mif va dindand farqli o'laroq, falsafa dunyoni e'tiqod va tuyg'ularga tayanib emas, balki aql va bilimlarga tayangan holda tushuntiradi. falsafa dunyoqarash shakli sifatida olamni inson va dunyoning o'zaro munosabatlari nuqtai nazaridan o'rganadi. Dunyoqarash ob'ekti – butun dunyo, biroq uning predmeti – tabiat dunyosi va inson dunyosining yoki, antik falsafa ta'biri bilan aytganda, makrokosmos va mikrokosmosning o'zaro munosabatidir. Bundan uning muammolari doirasi kelib chiqadi. Insonning dunyodagi o'rni qanday? Umuman, dunyoning o'zi nima? Inson hayotining mazmuni nimadan iborat? Vaqt, makon va harakat nima? Kabi savollarga javob izlaydi. Falsafa o'z davri ma'naviy madaniyatining markazi vazifasini bajarish orqali koordinatalar abadiy tizimini yaratishga yordam beradi, davr saboqlarini aniqlash va tushuntirish yo'li bilan inson tafakkuriga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Qadim zamonlarda Platon shunday degan edi: «Toki davlatlarda faylasuflar podsholik qilmas ekanlar yoki hozirgi shohlar va podshohlar oqilona falsafiy mulohaza yuritishni o'rganmas va davlat hokimiyati bilan falsafaning mushtarakligi qaror topmas ekan, davlat yovuzliklardan xalos bo'la olmaydi»¹. Boesiy poetik intuitsiyasida falsafa o'ng qo'lida kitob, chap qo'lida esa saltanat hassasi – skipetr tutgan Iloha obrazida gavdalanadi. Bu timsollarning mavjudligi tasodifiy bir hol emas. Falsafa bilim berish bilan bir qatorda, dunyoni oqilona boshqaradi va skipetr bu fikrni tasdiqlaydi.

«Dunyo – inson» tizimidagi munosabatlarning rang-barangligi predmetli-amaliy, gnoseologik, akseologik, estetik, axloqiy va boshqa xil munosabatlar bilan belgilanadi. Quyidagilar falsafiy bilimning strukturasi hisoblanadi:

- ontologiya – mavjudlik, borliq haqidagi bilim;
- gnoseologiya (boshqa bir terminologiyaga ko'ra – epistemologiya) – bilish nazariyasi;
- ijtimoiy falsafa – jamiyat haqidagi ta'limot;
- etika – axloq haqidagi ta'limot;
- aksiologiya - qadriyatlar haqidagi ta'limot;
- falsafiy antropologiya – inson haqidagi ta'limot va boshqalar.

Falsafiy dunyoqarashning shakllanishida **bilim** muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimda dunyoqarashga xos barcha belgilar mavjud, lekin, u dunyoqarash bilan aynan emas. Olamni tushunish bilimlar paydo bo'lishi uchun asosdir. Bilim inson ongida hissiy va aqliy bilish jarayonida hosil bo'ladi va muayyan sharoitda biror hodisa yoki narsani baholashda qo'l kelishi bilan dunyoqarashga aylanadi.

Falsafa azal-azaldan dunyoqarash sifatida hayot va yashashdan maqsad nima, umrni qanday o'tkazish kerak, kabi qator savollarga javob topish zarurati tufayli vujudga kelgan. Falsafiy dunyoqarash o'zining nazariy asoslangani bilan ajralib turadi. Shu ma'noda, u boshqa fan yoki faoliyat sohasi uchun umumiy uslub (metodologiya) vazifasini ham bajaradi.

¹ Платон. Соч.: В 3 т. – М., 1968- 1971. Т. 1. – 275-6.

Nazariya bilish jarayonining natijasi, usul (metod) shu bilimga erishish yo'lini anglatadi. Falsafiy nazariya bir vaqtda usul vazifasini ham bajaradi.

Falsafiy dunyoqarash, mohiyatan ma'naviy faoliyat bo'lib, uning muayyan yo'nalishlari tizim tarzida quyidagicha izohlanadi:

1. Axloqiy. 2. Diniy. 3. Huquqiy. 4. Siyosiy. 5. Ekologik. 6. Estetik.

Mazkur dunyoqarash shakllari o'zaro bog'liqlikda, aloqadorlikda harakat qiladi.

Falsafiy dunyoqarashning tamoyillari va funksiyalari. Dunyoqarash tizimiga xos nisbatan mustaqil yo'nalishlarning har birini falsafiy mulohazaning oydinlashgan (konkretlashgan) shakli sifatida qarash mumkin. **Falsafiy dunyoqarash insonning olam, odam va borliqqa munosabatini ifodalovchi bilimlar tizimidir.** Moddiy yoki ma'naviy jihatlari nechog'lik mutlaqlashtirilishiga qarab, uning tarkibida **materialistik** va **idealistik** dunyoqarash yo'nalishlari mavjudligini ko'ramiz.

Falsafiy dunyoqarash tarkibida quyidagi umumiy tamoyillar namoyon bo'ladi:

- turli dunyoqarash shakllarining o'zaro aloqadorligi kuchaymoqda;
- muayyan dunyoqarash shakllanish va rivojlanish jarayonida insonga munosabatning ahamiyati ortib bormoqda;

- milliy dunyoqarash umuminsoniy dunyoqarash shakli va uning tarkibiy qismi sifatida yuzaga kelgan.

Bu umumiy tamoyillari istalgan konkret dunyoqarash shakli uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, uning quyidagi tamoyillari ham bor: ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, universallik, maqsadlilik, g'oyaviylik, nazariya va amaliyot birligi.

Falsafiy dunyoqarash

- **ilmiydir:** narsa-hodisalar o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasida emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi hamda ob'ektiv olamdagi narsa-hodisalarning konkret munosabatlarini aks ettiradi.

- **tarixiylik tamoyili** jamiyat o'tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligi va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

- **mantiqiy izchilligi** har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Aks holda, dunyoqarashning tashqi olamni xolis, ilmiy, aniq-ravshan va izchil aks ettirishiga putur yetadi.

- **universalligi** boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qilishi bilan sifatlanadi, ya'ni har qanday dunyoqarash shakli o'ziga xos falsafiy xususiyatga ega.

- **maqsadga mavofiq**, inson manfaatlariga mos keladi. Chunki, inson muayyan maqsad, orzu-umidlar bilan yashaydi, ularni o'z dunyoqarashida aks ettiradi.

- **g'oyaviylik tamoyili** uning asosida muayyan g'oya yotgani bilan ifodalanadi. Bugungi o'zbek milliy falsafiy dunyoqarashi milliy mustaqillik, o'zlikni anglash, millatimiz kelajagini belgilaydigan istiqloq g'oyasiga tayanishi bilan xarakterlidir. Shu g'oyani e'tiqodga aylantirish va uning amalga oshishi uchun xizmat qiladi.

- **nazariya va amaliyot birligi** dunyoqarashning nazariya sifatida mavjudligi ijtimoiy amaliyot tajribalarini ijodiy umumlashtirib, istiqbol rejalarini belgilashda qo'l kelishi bilan izohlanadi.

Yuqorida zikr etilgan tamoyillar, **Falsafiy dunyoqarashning vazifalari**(funksiyalari)ni belgilab beradi. Bu vazifalar jamiyatning umumbashariy ruhdagi maqsad-muddaolari, manfaatlaridan kelib chiqadi hamda boshqa dunyoqarash shakllari uchun uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoqarash, avvalo insoniy munosabatlar ifodasi nuqtai nazaridan, u insonning borliqqa munosabati, bahosi tarzida ko'zga tashlanadi. Ya'ni, inson, o'z ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib, narsa-hodisalarni: yaxshi-yomon, foydali-zararli, savob-gunoh, oriyat-benomuslik kabi qarama-qarshi mezonlarga ajratadi. Bu falsafiy dunyoqarashning **baholash** vazifasini anglatadi. Inson narsa-hodisalarga baho berar ekan, o'zi tayanadigan omillarga (ideallariga) moslashtiradi. Orzu-havaslarga erishishning usul, vosita, amaliy yo'nalishlari belgilanadi.

Dunyoqarash inson faoliyatini axloqiy me'yor, diniy qadriyat, xuquqiy hujjat va siyosiy mexanizmlar kabi usul-vositalar orqali **boshqarish** vazifasini ham ado etadi. Insonni ezgulikka yo'naltirish uchun axloq uning aql-zakovatiga; din – iymon-e'tiqodiga; huquq – qonunlarga, jazo idoralariga; siyosat-davlat funksiyalariga tayanadi va o'ziga xos ta'sir yo'nalishlariga ega bo'ladi.

Falsafiy dunyoqarashning inson faoliyatini **nazorat qilish** vazifasi ham bor. Bunda dunyoqarashning jamoatchilik fikri tarzidagi ko‘rinishi nazarda tutiladi. Masalan, o‘zbek xalqining tarixiy rivojlanishi va ma’naviy hayot tarzida mahalla ijtimoiy nazoratning muhim instituti tarzida faoliyat ko‘rsatib kelgan. O‘zbek mahallalarida bag‘rikenglik, mehr-oqibat, hamdardlik kabi noyob fazilatlar kamol topadi. Shu bois Islom Karimov uni «O‘zini o‘zi boshqarish maktabi... demokratiya darsxonasi», deb ta’riflaydi².

Falsafiy dunyoqarashning **birlashtirish** (kommunikativ) vazifasi turli dunyoqarash yo‘nalishlarini milliy va umuminsoniy g‘oyalar atrofida uyg‘unlashtirishi bilan xarakterlanadi. Turli manfaatlarni ko‘zlagan dunyoqarashlar o‘rtasida muayyan ziddiyatlar ro‘y berishi tabiiy. Bunday sharoitda falsafiy dunyoqarash ularni murosaga keltirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani umumlashtirish, jamiyat istiqbolini ko‘rsatish imkoniyati tufayli xalqni muayyan g‘oya atrofida birlashtiradi. *Masalan, mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurash davrida ozodlik falsafasi dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida millatning turli tabaqalarini, e’tiqodi, iqtisodiy ahvoli va siyosiy mavqeidan qat’i nazar, birlashtirgan va umumiy kurashga safarbar qilgan.*

Falsafiy dunyoqarashning **tarbiyaviy** vazifasini yuqorida zikr etilgan boshqa vazifalarning asosi sifatida qarash kerak. Bu – kishilarda keng va teran fikrlash qobiliyatini vujudga keltirish asosida bag‘rikenglik, muros, har qanday ziddiyatlarni madaniy yo‘l bilan hal qilish, kelajakka umid va ishonch ruhini shakllantirishdan iborat.

Yuqorida bayon qilingan vazifalardan tashqari falsafa **ijtimoiy-aksiologik, madaniy-tarbiyaviy, bayon etish, axborot berish, evristik, koordinatsiya kiluvchi, integratsiyalovchi** va **mantiqiy-gnoseologik** singari qator metodomantiqiy funksiyalarni bajarishga qodir. Biroq falsafaning uslubiy imkoniyatlari bundanda keng va chuqurroqdir.

Falsafa va fanning mutanosibligi va rivojlanishi. Falsafa va fanning bir biridan ayro tasavvur qilishning imkoni yo‘q. Chunki ularning har ikkisi ham insoniyat tafakkuri bilan birgalikda rivojlanadi.

Fan rivojlanishining asosiy bosqichlari. Fan taraqqiyoti ikki katta davr va to‘rt bosqichda rivojlandi. Birinchi davr dastlabki fan va ikkinchi davr haqiqiy fan deb nomlanadi. Dastlabki fan bir bosqichda, haqiqiy fan uch bosqichda namoyon bo‘ladi.

Dastlabki fan davri va ilk fan bosqichi. *Miloddan avvalgi I ming yillikdan XVI asrgacha bo‘lgan davr ilk fan bosqichidir.* Bu bosqichda asrlar mobaynida avlod-dan-avlodga o‘tib kelgan, hayot tajribasi va mehnat faoliyati jarayonida olingan amaliy bilimlar bilan bir qatorda juda umumiy va mavhum mushohadalarga asoslangan nazariyalar xususiyatiga ega bo‘lgan tabiat haqidagi dastlabki falsafiy tasavvurlar (naturfalsafa) vujudga kela boshlagan. Ilmiy bilim kurtaklari naturfalsafa doirasida uning elementlari sifatida shakllangan. Matematik, astronomik, tibbiy va boshqa masalalarni yechishda foydalaniladigan ma’lumotlar, usullar va metodlar jamlanishi bilan falsafada tegishli bo‘limlar vujudga kelgan va keyinchalik asta-sekin shakllanayotgan ayrim fanlar: matematika, astronomiya, tibbiyot va hokazolarga ajralib chiqqan. Bu davrda Qadimgi Yunonistonda “Platon akademiyasi” (2013 yilda Platon akademiyasiga 2400 yil to‘lishi bilan XXIII Jahon Falsafa Kongressi Gresianing Afina shahrida o‘tkazildi), Markaziy Osiyoda “Ma’mun akademiyasi” tashkil etilgan, ilmiy bilim rivojida muayyan yutuqlarga erishilgan bo‘lsada, madaniyatning alohida shakli sifatida fan paydo bo‘lishidan oldingi «embrional» davri hisoblanadi.

XVI-XVII asrlar – 1 ilmiy inqilobdavri bo‘lib, u klassik fan bosqichi deb nomlanadi va XIX asrgacha davom etadi. U Kopernik va Galiley tadqiqotlaridan boshlanib, Nyuton va Leybnisning fizika va matematika sohasidagi fundamental asarlari bilan o‘z cho‘qqisiga ko‘tarilgan. Fanning buyuk ijodkorlari Galiley va Nyuton yashagan davr – kashfiyotlar, shuningdek sxolastika va diniy dunyoqarash dogmatizmiga qarshi kurash olib borilgan romantik davrdir.

Biroq fan o‘zining yangi metodologiyasini yaratib, amaliyot ruhi bilan sug‘orilgani sari – falsafadan uzoqlasha boshlaydi. Bu davrda fan falsafiy, diniy, teologik aqidalardan qat’iy nazar rivojlanishi mumkin bo‘lgan ilmiy bilimlar tizimi sifatida tushunila boshlaydi. Natijada fan faoliyatning alohida, mustaqil sohasiga aylanadi. Professional olimlar paydo bo‘ladi, ularni tayyorlash amalga oshiriluvchi universitet

² Karimov I. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gazetasi, 2000 yil 8 iyun.

ta'limi tizimi rivojlanadi. O'z faoliyati, muloqot va axborot ayirboshlashning alohida shakllari va qoidalariga ega bo'lgan ilmiy hamjamiyat vujud keladi.

XVII asrda dastlabki ilmiy akademiyalar: London qirollik jamiyati (1660), Parij Fanlar akademiyasi (1666) tashkil topadi. Keyinroq Berlinda (1700), Sankt-Peterburgda (1724), Stokgolmda (1739) va Yevropaning boshqa poytaxt shaharlarida ilmiy akademiyalar ta'sis etiladi. Bu akademiyalarning eng yirigi - London qirollik jamiyati bo'lib, u tashkil etilgan paytda 55 a'zodan iborat bo'lgan. Parij Fanlar akademiyasi 21 kishidan iborat tarkibda ish boshlagan. Sankt-Peterburg akademiyasining a'zolar shtatida dastlab 11 kishi belgilangan. Yevropa mamlakatlarida XVIII asr boshiga kelib olimlar soni bir necha ming kishiga yetgan bo'lsa kerak, chunki ilmiy jurnallarning (bu davrda bir necha o'n ilmiy jurnallar nashr etilgan) tirajlari ming nusxagacha borgan. 1825 yilda nemis kimyogari Yu.Libix ilmiy laboratoriya tashkil qiladi va u olimga ko'p miqdorda daromad keltira boshlaydi.

XIX asr oxiri XX asrning 70 yillar fani noklassik fan bosqichi deb ataladi. Bu davrda fanlar vujudga keladi, ularda ulkan dalilik material to'planadi va tizimga solinadi. Matematika, fizika, kimyo, geologiya, biologiya, psixologiya va boshqa fanlarda fundamental nazariyalar yaratiladi. Texnika fanlari vujudga keladi va moddiy ishlab chiqarishda yanada sezilarliroq rol o'ynay boshlaydi. Fanning ijtimoiy roli ortadi, uning rivojlanishi o'sha davr mutafakkirlari tomonidan ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

XVIII asrning o'rtalarida jahonda fan bilan shug'ullanuvchi kishilar 10 ming kishidan oshmagan bo'lsa, XIX asr oxiriga kelib olimlar soni 100 ming kishiga yetadi. XVI asrda «olim odamlar»ning yarmidan ko'prog'i diniy ma'lumot olgan kliriklar edi. XIX asrda fan ijtimoiy mehnatning mustaqil tarmog'iga aylanadi va u bilan universitetlar va institutlarning maxsus fakultetlarini tamomlagan «dunyoviy» professional olimlar shug'ullanadi. 1850 yilda jahonda mingga yaqin ilmiy jurnallar nashr etiladi, 1950 yilga kelib esa ularning soni 10 mingdan oshadi.

XIX asr oxiriga kelib ilmiy laboratoriyalar soni ko'payadi. Fan tijoratchilar, tadbirkorlar e'tiborini o'ziga tobora ko'proq torta boshlaydi. Ular olimlarning ishlab chiqarish, sanoat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarini mablag' bilan ta'minlay boshlaydilar.

XX asrning 70 yillaridafan rivojlanishida yangi postnoklassikbosqich boshlanadi, chunki mazkur asr bo'sag'asida fanda inqilob yuz beradi va buning natijasida u oldingi davrning klassik fanidan sezilarli darajada farq qila boshlaydi. XIX-XX asrlar chegarasida amalga oshirilgan inqilobiy kashfiyotlar bir qancha fanlarning asoslarini larzaga soladi. Matematikada to'plamlar nazariyasi va matematik tafakkurning mantiqiy asoslari tanqidiy tahlil qilinadi, bir qancha yangi fanlar vujudga keladi. Fizikada klassik fizikaning falsafiy asoslarini qayta ko'rishga majbur qilgan fundamental nazariyalar – nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasi yaratiladi. Biologiyada genetika rivojlanadi. Tibbiyot, psixologiya hamda inson haqidagi boshqa fanlarda yangi fundamental nazariyalar paydo bo'ladi. *XX asrning so'nggi o'n yilliklarida fan texnika taraqqiyoti axborot (kompyuter) inqilobibosqichiga qadam qo'ydi.* Bu bosqichning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot jamiyat rivojlanishining muhim resurslaridan biriga aylandi. Shu tariqa fan bilan bog'liq yuksak texnologiyalar, ular bilan mushtarak ta'lim endilikda har qanday jamiyatning sivilizatsion rivojlanish darajasini belgilamoqda. Ilmiy kashfiyotlar va ularning amalga tatbiq etilishi o'rtasidagi masofa mumkin qadar qisqaradi. *Ilgari fan yutuqlaridan amalda foydalanish usullarini topish uchun 50-100 yil vaqt sarflangan bo'lsa, endilikda bunga 2-3 yilda yoki hatto bundan ham qisqaroq vaqt ichida muvaffaq bo'linmoqda.*

Fan va falsafaning mutanosibli. *Fan rivojlanishning yuksak darajasiga erishgan bo'lsa-da, lekin amalda falsafa bilan uzviy bog'liq bo'lib qolmoqda. Ular faol o'zaro ta'sirga kirishib, bir-birining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Bu hol shu bilan izohlanadiki, falsafa daliliy materialga, sinovdan o'tgan ilmiy ma'lumotlarga tayanib, o'zining mavhum g'oyalarini borliq bilan taqqoslash imkoniyatiga ega, fan esa, dalillarni qayd etish va tavsiflash bilan cheklanmay, yanada asosliroq xulosalar chiqarish imkoniyatini qo'lga kiritadi.* XXI asr boshiga kelib jahonda umumiy yetti yarim milliard aholining qariyb olti millioni olimlardir. Taxminan shuncha odam fanga xizmat ko'rsatuvchi mehnat bilan band (laborantlar, texniklar, nashriyotlarning xodimlari va h.k.). Yerdan qadim zamonlardan boshlab to XXI asrning boshiga qadar yashagan olimlarning umumiy sonini olsak, ularning o'ndan to'qqiz qismi bizning zamondoshlarimiz ekanligi ayon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda ilmiy xodimlar soni mehnatga

qobiliyatli aholining qariyb 10% ni tashkil qiladi, fanni ta'minlashga milliy daromadning 5% dan ko'prog'i sarflanadi.

Jahon hamjamiyati III ming yillikning boshlanishini, biosfera holati va Yerdagi hayotning davom etishi uchun o'z javobgarligini tobora teranroq anglagan holda qarshi oldi. Ayni shu sababli insonning barkamol rivojlanishi, odamlar, xalqlar o'rtasida, shuningdek jamiyat va tabiat o'rtasida insoniy, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatish masalalari azaliy falsafiy mavzular bilan bir qatorda falsafiy tadqiqotlarda birinchi o'ringa chiqmoqda. Shu munosabat bilan faylasuflar avvalo Yer yuzida ta'limning holati va rivojlanish darajasidan qattiq tashvishda ekanliklarini bildirmoqdalar. Ko'pgina faylasuflar fikriga ko'ra, hozirgi muammolarning aksariyati zahirida aynan qoniqarsiz ta'lim va lozim darajadagi tarbiyaning yo'qligi yotadi. Bu muammolarni yechishda falsafa ham o'z rolini o'ynashi lozim.